

O‘TKIR HOSHIMOVNING «TUSHDA KECHGAN UMRLAR» ROMANIDA URUSH MAVZUSINING BADIY TALQINI

Yusupova Shodiya Kerimbayevna,

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Olmazor tuman ixtisoslashtirilgan maktabi IELTS fakultativ mashg‘ulot o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

Email: shodiyayusupova1994@gmail.com

ORCID iD: 0009-0006-7600-0551

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanidagi urush mavzusini har tomonlama tahlil qilishga bag‘ishlangan. Afg‘on urushi shaxs taqdiri, ijtimoiy adolat va ma’naviy qiymat masalalari bilan chambarchas bog‘liq holda yoritilgan. Bosh qahramon Rustam obrazi orqali urushning inson ruhiyatiga ko‘rsatgan halokatli ta’siri, shaxs va tuzum o‘rtasidagi ziddiyat, shuningdek, sho‘rolar davridagi siyosiy qatag‘on bilan urushning umumiy fojiaiy ruhida birlashuvi tadqiq etilgan. Asar syujeti, konflikt tuzilmasi, badiiy vaqt va makonda urush mavzusining talqini tahlil obyekti sifatida ko‘rib chiqilgan. Muallif mahorati, retrospeksiya usuli va sotsiologiyistik jihatlardan ham asar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Afg‘on urushi, «o‘zbek ishi», badiiy psixologizm, konflikt, shaxs va tuzum, sovet mafkurasi, retrospeksiya, urush va inson taqdiri.

Abstract. This article is dedicated to a comprehensive analysis of the theme of war in O‘tkir Hoshimov’s novel, "Tushda Kechgan Umrlar" (Lives Lived in a Dream). The Afghan War is depicted as being inextricably linked with issues of individual destiny, social justice, and moral values. Through the character of the protagonist, Rustam, the devastating impact of war on the human psyche, the conflict between the individual and the system, and the convergence of Soviet-era political repressions with the overarching tragic spirit of the war are explored. The plot, conflict structure, and the interpretation of the war theme within the novel’s artistic time and space are the objects of analysis. The author’s mastery, the use of the retrospective method, and the sociolinguistic aspects of the work are also examined.

Keywords: Afghan War, "Uzbek Case," literary psychologism, conflict, individual and system, Soviet ideology, retrospection, war and human destiny.

Аннотация. Настоящая статья посвящена всестороннему анализу темы войны в романе Уткира Хашимова "Жизни, прожитые во сне." Афганская война освещается в тесной связи с вопросами судьбы личности, социальной справедливости и духовных ценностей. На примере образа главного героя Рустама исследуется разрушительное воздействие войны на человеческую психику, конфликт между личностью и системой, а также слияние политических репрессий советского периода с общей трагической атмосферой войны. В качестве объекта анализа рассматриваются сюжет произведения, структура конфликта, интерпретация темы войны в художественном времени и пространстве. Произведение также изучено с точки зрения авторского мастерства, использования приёма ретроспекции и социолингвистических аспектов.

Ключевые слова: Афганская война, "узбекское дело," художественный психологизм, конфликт, личность и система, советская идеология, ретроспекция, война и судьба человека.

Kirish. O‘zbek adabiyotining XX asr oxiri namunachiligida O‘tkir Hoshimov (1941–2013) alohida mavqega ega. Uning adabiy merosi – nafaqat badiiy san’at namunasi, balki davr manzarasini haqqoniy ko‘rsatuvchi tarixiy hujjat hamdir [1]. Yozuvchi o‘z ijodida sovet tuzumining iztirobli yillarini – qatag‘on, Afg‘on urushi va «o‘zbek ishi» fojialarini ulkan ma’naviy mas’uliyat bilan qalamga oldi.

«Tushda kechgan umrlar» romani 1991–1994-yillarda yozilgan bo‘lib, ilk bor «Sharq yulduzi» jurnalida e‘lon qilingan [2]. Taniqli adabiyotshunos Said Ahmadning roman haqidagi so‘zlari bu asarning qudratini yaqqol ifodalaydi: «*Romanni loqayd hayajonsiz o‘qib bo‘lmaydi, u kitobxonni larzaga soladi. Xalq boshiga kulfatdan boshqani solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg‘ish yog‘diradi*» [2]. Ushbu maqolada romannig asosiy o‘qi – urush mavzusi – syujet, obraz, konflikt va psixologizm nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Romaning tarixi va ijtimoiy konteksti haqida so‘z borganda asar 1980–1990-yillar O‘zbekistonining og‘ir ijtimoiy-siyosiy vaziyatida yuzaga keldi. Bu davr uchun uch yirik fojia xarakterli edi: Afg‘on urushi, «o‘zbek ishi» sifatida mashhur bo‘lgan siyosiy qatag‘on to‘lqini va sovet tuzumining ag‘darilishi. Yozuvchi mana shu uchala fojiani insonlar hayotida qoldirgan izini bir romanning badiiy makoniga sig‘dirdi [3].

Filologiya fanlari doktori, professor Yo‘ldosh Solijonovning ta‘kidlashicha, «80-yillarning oxirlariga kelib, jamiyat hayotida ko‘p o‘zgarishlar yuz bera boshladi. O‘zbekistonda markaz tomonidan olib borilgan harakat «o‘zbek ishi» deb nom olgan ommaviy qatag‘on kompaniyasiga aylanib ketdi. 30–50-yillardagi qatag‘on manzaralari takrorlandi» [3]. Ushbu tarixiy fon roman syujetining muhim qatlamini tashkil etadi.

Romanda voqealar markazi bo‘lmish Afg‘on urushi alohida o‘rin tutadi. Bu urush – tarixan sovet hukumatining boshqa xalq hududiga bosqin uyushtirgan va minglab yoshlarning hayotini uzgan fojiasi. Asar orqali yozuvchi urushning ijtimoiy-siyosiy ildizlarini ochib berishdan ham ko‘ra, uning insonning ichki olamida qoldirgan izini tasvirlashga ustuvorlik beradi [4].

Romanning bosh qahramoni Rustam – jasur, halol va adolatparvar yigit. U universitetning ikkinchi kursida o‘qiyotgan paytda Afg‘on urushiga safarbar etiladi. Bu voqea o‘z-o‘zicha muhim bir ziddiyatni yuzaga keltiradi: talabalik davridagi yosh inson o‘z xohishi bilan emas, tuzumning buyrug‘i bilan jangga ketadi [5].

Nasimjonova Muxlisabegim tadqiqotida ta‘kidlanganidek, «Rustam – asar bosh qahramoni bo‘lmish bu yigit jasur, mard va halol. Universitetning ikkinchi kursida tahsil olayotgan vaqtda vatan tinchligi uchun urushga jo‘natildi. Vaholanki, urush mamlakat hududidan ancha olisda, Afg‘onistonda edi» [5]. Shu nuqtada yozuvchi urushning g‘ayriinsoniy mohiyatini oshkor qiladi: inson o‘zi tanlagan emas, o‘ziga yuklangan urushda jang qilishga majbur etiladi.

Rustam Afg‘onistonda og‘ir jarohatlanadi. Janglardan birida yaralangan bo‘lsa ham, mardonavor kurashni davom ettiradi. Urush tugab vataniga qaytganda ham jarohatning asorati uni bir umr tark etmaydi [5]. Bu jihat – urushning jismoniy emas, ruhiy jarohat sifatida talqini – asarning eng ta‘sirchan mavzularidan biridir.

Urushdan qaytgan Rustam dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydi. U endi oddiy turmush tashvishlariga sabrsiz bo‘ladi, adolatsizlik va yolg‘onni ko‘ra olmaydi. Yozuvchi bu holatni sotsiologik jihatdan ham juda nozik ifodalagan: Rustamning nutqi qisqa, aniq

va qat'iy. U qo'shnisi bilan tortishganda shunday deydi: «Men sening xushtoringga borib to'y qilyapmanmi?!» [4]. Bu jumlada nafaqat shaxs, balki urush o'tgan insondagi ichki keskinlik aks etgan.

Sotsiologiya nuqtayi nazaridan tadqiq qilgan Usmonxojayeva Zulfiyaning fikricha, Rustamning nutqiy xususiyati «milliy identifikatsiya va shaxsiy haqiqat uchun kurashni aks ettiradi» [4]. Demak, urush – bu yozuvchi talqinida faqat jang maydoni hodisasi emas, balki inson shaxsiyatini qayta shakllantirib, nutqini, munosabatlarini va hayotiy qadriyatlarini butunlay o'zgartirib yuboruvchi kuch.

Asardagi eng muhim badiiy savollardan biri – urush kishini fojia tomon qanday etkilaydi? Rustam Afg'on urushi xotiralaridan qutula olmaydi. U o'zi sevgan Shahnozaga uylanadi, lekin ular baxtli bo'lisha olmaydi. Bu baxtsizlikning zamirida urushning salbiy ta'siri yotadi [6]. Urushdan kasal va ruhiy iztirobda qaytgan yigit tinch hayot kechirish qudratidan mahrum bo'ladi.

Usarova Laylo Ibragimovnaning tahlilida aytilganidek, «Rustam Afg'on urushidan qutula olmadi. U o'zi sevgan qiz Shahnozaga uylangan bo'lsa ham, ikkalasi bir-birini qattiq sevsam ham ular baxtli bo'lisha olmadi. Bu baxtsizliklarning asosiy sababi urushning salbiy ta'siri edi» [6]. Uyga qaytgandan keyingi adolatsizliklar, nohaqliklarga guvoh bo'lishi va ayolining baxtsizligiga o'zini aybdor his etishi Rustamni fojiali o'limga olib keladi.

Rustamning o'limi – bu asarning kulminatsion nuqtasi. Ammo yozuvchi buni avvaldan signallar orqali tayyorlaydi. Asar Rustamning kundaligidagi kuz tasviri bilan boshlanadi: «Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi...» [9]. Bu tasvirda kuz – faqat fasl emas, inson umrining so'nishi, urushda singan ruhning timsoli.

Nasimjonova Muxlisabegimning tahlilida bu o'lim psixologik jihatdan chuqur asoslanadi: «Uzoq asabiylashish, stress holatidan keyin o'zini derazadan pastga tashladi va o'ldi. G'azab – insonning ichidagi eng katta dushman» [5]. Biroq bu g'azabning manbai urush – uni insoniy his-tuyg'ulardan to'la mahrum etmagan, aksincha, kuchaytirgan, lekin yechim topa olmaydigan darajaga yetkazgan.

Shu nuqtayi nazardan Rustamning o'limi ikki tomonlama talqin qilinadi: bir tomondan – urushda singan kishining fojiali taqdirigina emas, balki tuzumning ezgan, adolatsizlikka ko'mdirgan insonning oxirgi isyoni. Ikkinchi tomondan – bu shaxs va g'ayriinsoniy tuzum o'rtasidagi ziddiyatning hal bo'lmasligi, yechimning yo'qligi [7].

Roman uchun ikkinchi muhim qahramonlar tizimi – Komissar Soat G'aniyev. Bu qahramon sovet tuzumining g'ayriinsoniy mohiyatini to'la ifodalaydi. U ham o'z ma'nosida «urush» olib borgan – jamiyat ichida, fuqarolar orasida.

Solijonov va Karimov tadqiqotida ta'kidlanishicha, «Ko'plar e'tiqod qo'ygan, ishongan tuzumning barbod bo'lishi, butun umrini, hayotini shu tuzumga xizmat qilishga sarflagan insonlarning ishongani sarob bo'lib chiqishi O'.Hoshimovning «Tushda kechgan

umrlar» romanida mahorat bilan tasvirlandi. Unda mustabid tuzumning haqiqiy qiyofasi, odamlar ishongan aqidalarning bema'niligi ko'rsatib berildi» [3].

Komissar – sovet mafkurasining so'nggi himoyachisi. Uning nutqida buyruq ohangi seziladi: «Har kim o'z o'rmini bilishi kerak! Tartib bo'lmasa, davlat qanday yuradi?!» [4]. Bu nutqiy portret urush davrining rasmiy tilini – shaxsni mensimagan, buyruqqa bo'yundirishga qurilgan – aks ettiradi.

Romandagi eng ta'sirchan sahnalardan biri – Komissarning o'g'li Mauzerning otasiga aytgan gapi: «Sizning o'g'lingiz ekanimdan uyalaman» [7]. Bu birgina jumla Komissarning va u yashagan tuzumning g'ayriinsoniyligini ochib beradi. Aslida bu ham urushning bir ko'rinishi – g'oyaviy urush, shaxsni qurolga aylantirib, ota-bola munosabatlarini ham vayron etgan kuch.

«Tushda kechgan umrlar» romanining syujeti o'ziga xos tuzilishga ega. Asar odatdagi xronologik ketma-ketlik bilan emas, kulminatsiya bilan boshlanadi: Qurbonoy xola asar boshlanishidayoq Rustamning murdasini ko'rib qoladi [8]. Bu usul o'quvchini darhol fojining qo'yniga olib kiradi va asarning butun ruhini – «kuz o'lim to'shagida yotgan bemor» – belgilab beradi.

Achilova va Xodjamqulovning tadqiqotida aytilganidek, «muallif romanda retrospeksiya usulidan – zamonda ortga qaytish imkoniyatlaridan keng foydalangan... syujetning mazkur turi asarda boshqalariga qaraganda yetakchi o'rini egallagan» [8]. Retrospeksiya orqali urushdan oldingi va urushdan keyingi Rustam taqqoslanadi, bu esa uning ruhiy o'zgarishini yanada yorqinroq namoyon etadi.

Roman syujeti bir nechta parallel liniyalarga bo'lingan: 1) Rustam – Shahnoza – Rustamning otasi; 2) Qurbonoy xola – To'lagan – Fotima; 3) Komissar Soat G'aniyev; 4) Grisha – Vasilev Grigoriy Stepanovich [8]. Bu liniyalarning har biri urushning turli qirrasini ifodalaydi: birinchisi – urush va shaxs fojiasi, uchinchisi – tuzum va mafkura ziddiyati, ikkinchisi – urush ortidagi siyosiy qatag'on jabrdiydalarining taqdiri.

Badiiy vaqt imkoniyatlaridan foydalanish ham mahorat bilan amalga oshirilgan. Yozuvchi «parallel vaqt»dan ham unumli foydalangan: Rustamning Afg'on urushida ekani voqeasi, dadasining qamalishi, komissarning o'g'illari bilan bog'liq kechayotgan hayoti bir-biriga ulanib, takrorlanib ketadi [8]. Bu parallel vaqt urushning to'liqsimon ta'sirini – bir kishining taqdiri boshqa kishining hayotiga qanday ta'sir qilishini – jonli tarzda ko'rsatadi. Yozuvchi urush mavzusini lingvistik jihatdan ham o'ziga xos tarzda ifodalagan. Har bir qahramon o'z ijtimoiy holati, urush va tuzumga munosabatini til orqali namoyon etadi. Usmonxojayeva Zulfiyaning sotsiolingvistik tahlilida ko'rsatilganidek, romanda «shahar va qishloq odamlari nutqidagi tafovutlar, ijtimoiy tabaqalanish va til uslubining farqlari, sovet mafkurasini va rasmiy tilning ta'siri» yaqqol aks etgan [4]. Rustamning qisqa va qat'iy gaplari urushning uni qanday o'zgartirgani – va bu o'zgarishning tildagi aksini – ko'rsatadi.

Komissar tilida esa rasmiy sovet mafkurasi soʻzlaydi. Rustamni tergov qilayotgan vaqtida unga shunday deyiladi: «Biz haqni topishimiz kerak, sen his-tuygʻularga berilib ketma!» [4]. Bu jumla sovet davri rasmiy tili bilan insoniy nutq oʻrtasidagi ziddiyatni – urush va mafkura keltirib chiqargan boʻshliqni – aniq koʻrsatadi.

Qurbonoy xolaning xalqona nutqi esa – «Dunyo degani shunday ekan-da, sening istagingga boqib turmaydi» – urushdan, tuzumdan, barcha yovuzliklardan keyin ham insoniy sabr-toqat va donishmandlikning qolganini bildiradi. Bu ham urush mavzusining bir qirrasini: xalqning mana shu ogʻriqni oʻziga xos tarzda his etishi va tildagi ifodasi [4].

Yozuvchi urush va hayot haqiqatini ifodalashda dialektizmlardan ham unumli foydalangan. Ergashova Muhayyo va Meliboyeva Marhabo tadqiqotida taʼkidlanganidek, Oʻtkir Hoshimov «Tushda kechgan umrlar» asarida dialektizmlardan keng foydalangan, bu esa ushbu asar qahramonlari oddiy odamlar ekanligini koʻrsatish uchun xizmat qiladi [1].

Masalan, leksik dialektizmlar («barak», «bultur», «paqir», «xarrak» va boshqalar) qahramonlarning hududiy va ijtimoiy tegishlilikini ifodalaydi. Bu oddiy soʻzlar orqali yozuvchi urushga ketayotgan va qaytayotgan kishilarning kimligini – ular xalqning oddiy farzandlari ekanini – taʼkidlaydi. Morfologik dialektizmlar esa («keptilar», «qipti», «obkeldiz») qahramon nutqining tirikligini, hayot haqiqatiga yaqinligini taʼminlaydi [1].

Asar iboralarining semantik jihatdan tahlilida Pormonov Fayozbek koʻrsatganidek, «tishini tishiga qoʻymoq», «xom sut emgan», «miyasini qoqib, qoʻliga bermoq» kabi iboralar urush va hayot ziddiyatlarini toʻla ifodalashda muhim rol oʻynaydi [8]. «Tishini tishiga qoʻyib chidadi» iborasi esa aynan urushdan qaytgan kishining chidamini, insoniy kuchni tasvirlashda ishlatilgan.

Asarda urushning toʻgʻridan-toʻgʻri emas, bilvosita qurbonlari – urushga ketgan farzandlarini kutgan, siyosiy qatagʻon jabrini koʻrgan oddiy odamlar – ham jonli tasvirlangan. Qurbonoy xola – shunday obraz. U farrosh ayol, umri mehnatu azobda kechgan, lekin ichki kuchi va xalqona donoligini yoʻqotmagan.

Norboyeva Sayyoraning tadqiqotida taʼkidlanganidek, «Qurbonoy xola umrini nimaga sarflaganini bilmaydi, sogʻligi yomonlashib ishga yaramay qolsa ham har kungi yumushlarini qoʻymaydi» [2]. Bu ayolning taqdiri – urushning va qatagʻonning bilvosita taʼsirida singan hayotning timsoli.

Qurbonoy xolaning oʻz tarixi ham urush va zulm bilan bogʻliq. Roman oʻrtalarida u 14 yoshli qizcha tarzida namoyon boʻladi – otasi nohaq qamalgan, onasi komissar tomonidan zoʻrlangan [8]. Bu retrospektiv tasvirda koʻrinadiki, urush va qatagʻon avloddan avlodga oʻtadi, jarohat bitta odamniki boʻlib qolmaydi.

Xulosa. Oʻtkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romani – urush mavzusini badiiy psixologizm va chuqur insoniy masʼuliyat bilan yoritgan nodir asarlardan biridir. Yozuvchi Afgʻon urushi voqealarini faqat tashqi hodisa sifatida emas, balki inson

ruhiyatining, oilaviy hayotning va butun ijtimoiy tuzumning yemirilishiga olib keladigan kuch sifatida tasvirlagan.

Bosh qahramon Rustam obrazi orqali yozuvchi urushning shaxsga nisbatan g'ayriinsoniy ekanligini, uning jisman emas, ruhan ham halok qilishini ko'rsatgan. Komissar Soat G'aniyev va uning liniyasi esa mafkuraviy urushning – odamlar qalbi va ongini egallab olgan sovet tuzumining – timsoli sifatida berilgan. Qurbonoy xola esa urushning yashirin qurbonlarini – bevosita jang qilmagan, lekin umri borasida hamma narsasini yo'qotgan kishilarni – ifodalaydi.

Roman syujetida qo'llangan retrospeksiya usuli, parallel vaqt, bir nechta syujet liniyalari va sotsiologvistik rang-baranglik – bularning barchasi urush mavzusini ko'p qirrali va chuqur talqin qilish imkonini beradi. «Tushda kechgan umrlar» – bu urush haqida yozilgan roman emas, urush tufayli singan insonlar haqida yozilgan asar. Aynan shu jihat uni o'zbek adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri sifatida tasdiqlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergashova M.V., Meliboyeva M.Sh., Olimjonova Z. O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» asarida dialektizmlarning qo'llanilishi // *Advances in Science and Humanities*. – 2025. – Vol. 01, Issue 04. – B. 19–20.
2. Norboyeva S. «Tushda kechgan umrlar» romanisida qahramonlar xarakterining ifodalanishi // *European Science International Conference: Studying the Progress of Science and Its Shortcomings*. – B. 47–51.
3. Solijonov Y., Karimov H. «Tushda kechgan umrlar» romanida obrazlar tizimi va syujet xususiyatlari // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – 2022. – Vol. 2, Issue 12. – B. 443–449.
4. Usmonxojayeva Z.A. Otkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» asari sotsiologvistik tahlili // *International Journal of Science and Technology*. – 2025. – Vol. 02, Issue 04. – B. 72–73.
5. Nasimjonova M.A. O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» asarida konflikt masalasi // *Ta'lim Fidoyilari*. – 2023. – Iyun, 1-qism. – B. 348–352.
6. Usarova L.I., Ro'ziqulova F. O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umirlar» asarida qahramonlar xarakteri // *Journal of New Century Innovations*. – 2024. – Vol. 65, Issue 2. – B. 165–166.
7. Qo'yliyeva G., Burxonova F. «Tushda kechgan umrlar» asari tahlili // *Academic Research in Modern Science: International Scientific-Online Conference*. – B. 137–140.
8. Achilova E.S., Xodjamqulov U.N. «Tushda kechgan umrlar» romanining syujet, obraz, uslub xususiyatlari // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2022. – Vol. 3, Issue 1. – B. 195–201.
9. Pormonov F.R. O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanida qo'llangan ayrim iboralarning semantik tahlili // *Science and Innovation in the Education System: International Scientific-Online Conference*. – B. 85–87.
10. Mukarova S. «Tushda kechgan umrlar» asarining badiiy mohiyati // *Academic Research in Modern Science: International Scientific-Online Conference*. – B. 3411.